

AHMAD DONISH FALSAFASINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Miltiqboev B.Z. -

O'zMU mustaqil izlanuvchisi

Ahmad Donish O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan murakkab vaziyatda yetishib chiqqan islohotchi va ma'rifatparvar edi. Bu vaqta Markaziy Osiyo jumladan Buxoro amirligi iqtisodiy jihatdan dunyoning qoloq davlatlaridan biri edi. Bu davrda Buxoro amirligida feodal tuzum hukmronlik qilardi. Diniy mafkuraning hukmronligi ham amirlik hayotida ko'plab qarorlarning o'z xoxishlari doirasida qabul qilinishi taraqqiyotning zaiflashuviga olib keldi.

Ahmad Donish falsafiy merosi jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatli bo'lib, uning ijtimoiy falsafiy qarashlarida jamiyat taraqqiyoti uchun islohotlar va tashabbuskorlik g'oyalari mavjudligi ilm-ma'rifatni rivojlantirish yo'lidagi sa'yi harakatlari ilg'or g'oyalari ma'rifatchilik va jadidchilik harakatining boshlanishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatga molikdir. Ahmad Donishning ma'rifatchi sifatidagi mavqe'ini shakllanishida amir saroyida xizmat qilgan davrlariga to'g'ri keladi. Saroyda ishlagan vaqtda amaldorlarning buzqliklari, o'z xalqining huquqsiz va himoyasizligini ko'rib tanqid qilgan. Bu haqda Ahmad Donish ijodi va falsafiy qarashlari bo'yicha tadqiqot olib borgan olim A.M.Bagoutdinov shunday deydi. "Ahmad Donishning tanqidiy yondashuviga hech kim qarshilik qilolmadi. Na musulmon sxolastiklarining hurufotlari, na amir zodagonlari. U azob chekayotgan vatandoshlari uchun hech kimni ayamaydi.

Ahmad Donish falsafiy qarashlarini uch davrga bo'lish mumkin.

XIX –asr: Islohotchilik va tanqidiy fikrlashning boshlanishi. Ma'rifatparvarlik harakatining boshlanishi Donish Buxoro amirligida an'anaviy ta'lim tizimini tanqid qilib, fan va texnika sohasidagi yangiliklarni joriy etishni talab qildi. U "Navodir ul-vaqoe" kabi asarlarida mamlakatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni fosh etdi va hukmdorlarni maslahatchilar bilan ishlashga, xalq farovonligi uchun islohotlar o'tkazishga chaqirishi Uning Rossiyaga qilgan elchilik safarlari (1857, 1869, 1874) davlat boshqaruvi, ilm-fan va sanoatning rivojlanganligini ko'rishiga sabab bo'ldi. Bu tajribalar uning Buxoroda zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha risolalar yozishiga asos yaratdi. Astronomiya ("Munozir al-Kavokib"), geografiya ("Risalat dar ilmi kurra"), va tarix ("Risolayi muxtasare...") kabi sohalarda yozgan asarlari o'z davri uchun innovatsion asarlar hisoblanib jamiyat taraqqiyoti uchun qimmatli fikrlarini berib o'tgandir.

XX –asr milliy uyg'onish va zamonaviy tafakkurga ta'sir: Donishning g'oyalari XX asr boshlaridagi jadidchilar (masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy) uchun namuna bo'ldi. Uning ma'rifat, demokratik boshqaruv va ayollarning ta'lim olish huquqi haqidagi fikrlari yangi avlod taraqqiyotparvarlariga ilhom berdi Garchi uning asarlarining bir qismi sovet tizimi tomonidan qayta talqin qilingan bo'lsa-da, marksistik tanqidga qaramay, Donishning ijtimoiy adolat mavzuidagi qarashlari o'rganildi.

XXI-asr merosning davomiyligi va zamonaviy ahamiyati: Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda Donishning asarlari qayta nashr etilib, uning ma'rifatparvarlik g'oyalari yangi ta'lim va madaniyat siyosatida aks etdi. Masalan, "Globus haqida risola" kabi asarlar tabiiy fanlarni rivojlantirishda istiqbolli deb tan olinadi Donishning inson huquqlari, barqaror taraqqiyot va hukumatning javobgarligi haqidagi fikrlari zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Xususan, uning "ko'pchilikning aqli bir kishinikidan ustun" degan g'oyasi demokratik jamiyatlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Ahmad Donishning islohotchilik g'oyalarini tadqiqotchi Sh.Rajabov shunday baholaydi. "Aslida Ahmad Donish isloh qilish loyihasida ko'rsatilgan barcha talablar aslida oddiy xalq o'z hukmdorlariga qo'yadigan talablardir" [1, 282]. Donish hayoti ilmiy merosini mukammal o'rgangan ushbu olim Donish hech qachon xalqdan ajralib turmagan, xalqa doim yaqin turgan va uning azobini his qilgan. U har doim xalqini va ekspulatatorlarning qashshoqligi va o'zboshimchaliklaridan qutqarishni o'ylardi deb ta'riflaydi [1,283].

A.Bagoutdinovning so'zlariga ko'ra "Ahmad Donish islohotchilik g'oyalarini to'g'ridan-to'g'ri ilgari surdi va uni hech narsa to'xtata olmadi. Na musulmon sxolastikasining xurofotlari va

na amir zodagonlari. U azob chekayotgan vatandoshlariga hamdard edi. Bu esa Buxoro amirligining feodal tuzumini tanqid qilishga olib keldi [2, 282]. Ahmad Donish barcha fanlarni mukammal o'rgangan yetuk olim uning qarashlarida ilgari surilgan g'oyalar faqat xalqning hayotini yaxshilash va jamiyat taraqqiyoti uchun islohot qilish edi. "Maqsadlari non toppish, ziynatlik kiyimlar kiyishdan boshqacha bo'lmagan bir necha hushomadgo'y kishilarning aralashishlari tufayli amir va hokimlarning eshigiga borish- kelish qilish nihoyatda og'irlashgan edi. Shuning uchun men ularning suhbatlaridan uzoqlashib, ulardan saqlanar edim. Chunki hunar egalari hushomad qilolmaydilar, balki o'zlari hushomadga loyiqdirlar" [3, 17].

Ahmad Donish ushbu fikrlari orqali quyidagilarni ochib berish mumkin. Amaldorlar va hokimlarning ishlariga aralashishning salbiy oqibatlarini: hushomadgo'y va manfaatdor kishilarning hokimlar yaqiniga kirib borishi ularning ishini qiyinlashtirgani ta'kidlanadi. Bu XIX asrda ma'muriyatda korrupsiya, poraxo'rlik va adolatsizlik keng tarqalganligini ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyoti uchun bunday aralashuvlarning oldini olish zarur edi, chunki bu ijtimoiy adolatni buzgan va davlat boshqaruvining samaradorligini pasaytirgan. Hunar egasi va kasb egalari ijtimoiy ahamiyati: Muallif hunar egalari (kasb bilan shug'ullanuvchilarni) hushomadgo'ylardan ustun qo'yadi, chunki ular mehnatkash, bilim va mahorat egasi bo'lib, jamiyat uchun haqiqiy qiymat yaratadi. XIX asrda sanoat va texnologiyalar rivojlangan sari hunarmandchilik va kasb mahorati jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Shuning uchun hunar egalari qadrlash ularning ilmiy-texnikaviy yutuqlarini rag'batlantirish uchun zarur edi. Ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari: Fikrlarda hokimlar oldiga borish imkoniyati faqat maqsadli (masalan, non topish yoki ziynat kiyish) kishilarga berilgani tanqid qilinadi. Bu XIX asrda ijtimoiy tabaqalanishning kuchayganligini va oddiy xalqning davlat ishlariga ta'sir etish imkoniyatining cheklanganligini ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyoti uchun bunday nohaqliklar bartaraf etilishi kerak edi. Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar: hushomadgo'ylikni (yaltaklik, laganbardorlik) salbiy hodisa sifatida ko'rib, buning o'rniga halollik, mehnasevarlik kabi fazilatlarni ulug'laydi. XIX asrda jamiyatning ma'naviy jihatdan mustahkamlanishi uchun bunday qadriyatlar muhim bo'lgan, ayniqsa zamonaviy taraqqiyot davrida axloqiy qadriyatlarining yo'qolib ketmasligi kerak edi. "Ularning suhbatlaridan uzoqlashish" iborasi mustaqil fikrlash, g'ayritabiiy guruhlarining ta'siridan qochish zarurligini anglatadi. XIX asrda yangi g'oyalar (masalan, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik) tarqalganda, mustaqil fikrlovchi insonlar jamiyatni yangilashda muhim rol o'ynagan.

Ahmad Donish davom ettirib yozadi Podshoh xizmatida turgan zamondoshlarimiz hushomadgo'ylikni va shuningdek kelishmagan ishlarni o'zlariga lozim deb biladilar deb qattiq tanqid ostiga oladi. Ahmad Donish poraxo'rlik va tovlamachilikni illat sifatida ko'rib jamiyat taraqqiyoti uchun eng katta to'siq sifatida ta'riflaydi. B.G'ofurov fikricha "Ahmad Donishning jamiyat taraqqiyoti uchun xizmatlari katta. XIX-asr oxirida u o'zi atrofida bir guruh kuzatuvchilarni birlashtirishga muvoffaq bo'ldi[4, 280]. Ahmad Donish tanqidiy fikrlashi va islohotchilik g'oyalari sababli amirlarning qarshiligiga uchradi va yuqori lavozimlardan ketdila umrining oxirida oddiy kambag'al odamlar bilan birdamlikda qashshoqlikda o'tkazdi.

Ahmad Donish ilm fan uchun ko'plab mablag'larini sarf qilgan yetuk olim. Uning atrofida nafaqat buxoro ziyolilari balki talabalar ham bor edi. Ahmad Donishning qarashlarini qo'llab-quvvatlagan va uning tarafdori bo'lgan Mulla Ikrom ham tanqidiy qarashlari bilan amirlarning o'zboshimchaligi, amirlikdagi mavjud kamchiliklar, adolatsizlik, Buxoro madrasalarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar taniq ostiga olindi. Ahmad Donishning ushbu ma'rifatchilik g'oyalari XX asr boshida mafkuraviy va siyosiy oqim manbalari "jadidchilik" harakatining boshlanishiga olib keldi [5, 145; 146]. Jadidchilar Ahmad Donishning ma'rifiy g'oyalardan chetga chiqmadi va aksincha bu g'oya kashfiyot bilan davom ettirildi. Yangi ulus maktablari va gazeta nashrlari tashkil etildi. Oldigilarga nisbatan bir necha yuqori qadam tashlandi. XIX –asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida amirlikning reaksiya, feodal tuzumiga qarshi harakatlar boshlandi. Shu tariqa Ahmad Donishning g'oyaviy va ma'rifatchilik g'oyalari qamrovi kengayib bordi. Amirlik aholisining katta qismi uning qarashlarini qo'llab-quvvatlay boshladi. S. Ayniy shu sababli bu olimni "Buxoroning qorong'u osmonidagi yorqin yulduz" deb atagani bejiz emas edi. Shu "yorqin" yulduz ostida qorong'u feodal-monarxiya jamiyatida "yulduz" uchun ko'plab kurashchilar

uygʻonishdi va Buxoro amirligining rivojlantirishga harakat qilishdi. Ahmad Donishni biz demokratik harakatlar asoschisi deyishimiz mumkin.

Donishning ilmiy qarashlarida oʻz davridagi siyosiy voqeliklarga tanqidiy yondashuv aniq koʻzga tashlanadi. U Buxoro amirligidagi mutlaq monarxiya, korrupsiya, ilm-fanning eʼtibordan chetda qolishi kabi muammolarni ochiq tanqid qilgan. Unga koʻra, xalqni zulm va jaholatdan chiqarish uchun hukumatni isloh qilish, taʼlim va tarbiyani kuchaytirish, shuningdek, matbuotni rivojlantirish zarur edi. Aynan shu jihatlari bilan Donish XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining ideologik asoschisi sifatida tan olinadi.

Ahmad Donishning ijtimoiy, siyosiy, maʼrifiy va falsafiy qarashlari oʻz davrida va undan keyingi asrlarda katta taʼsir kuchiga ega boʻlib, Oʻrta Osiyodagi modernizatsion harakatlar, maʼrifatparvarlik va siyosiy islohotlar uchun gʻoyaviy asos boʻlib xizmat qilgan. Uning ilgari surgan gʻoyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati, Sovet davridagi ijtimoiy islohotlar hamda XXI asr Oʻzbekistonining maʼnaviy va intellektual hayotida oʻz aksini topgan.

Ahmad Donish tomonidan ilgari surilgan islohotchilik gʻoyalari, avvalo, taʼlim sohasidagi yondashuvlarda oʻz aksini topdi. U jamiyatni taraqqiy ettirish uchun taʼlim muhim rol oʻynashini taʼkidlagan. Shu gʻoya asosida XX asr boshlarida jadid maktablari ochila boshladi. Bu maktablar diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham oʻrgatdi. Jadidlar Ahmad Donishning gʻoyalari davom ettirgan holda, maktab va madrasalarni zamonaviylashtirish, xalqni oʻqitish, savodxonlikni oshirish tarafdori boʻldilar. Donishning gʻoyalari aynan shu harakatga zamin yaratdi.

Jadidchilik harakati Ahmad Donish qarashlarining bevosita natijasi edi. Bu harakat XX asr boshida Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Turkmaniston hududlarida keng yoyildi. Jadidlar – maʼrifatparvar ziyolilar edi, ular jamiyatni modernizatsiyalash, islom dinini zamonaviy tafakkur bilan uygʻunlashtirish, ayollar huquqlarini himoya qilish, mustaqil fikrlashni targʻib qilishni maqsad qilib qoʻydilar. Ahmad Donish ularga gʻoyaviy asos boʻlib xizmat qilgan, ularning ilhom manbai hisoblangan.

XX asr boshidagi jadidchilik harakati, Ahmad Donishning ilmiy-falsafiy qarashlaridan ilhomlanib, maʼrifatparvarlik harakati sifatida rivojlandi. Bu harakat taʼlim va madaniyatni yangilash, xalqni zamonaviy bilimlarga ega qilishga qaratildi. Jadidchilik harakati, ayniqsa, taʼlimda oʻzgarishlarni amalga oshirishni oʻzining asosiy maqsadi sifatida belgiladi. Bu harakat Donishning fikrlarini amalga oshirishga imkon yaratdi, oʻzining bilim va ilimga boʻlgan eʼtiborini, inson huquqlarini, jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan gʻoyalari amalga oshirishga yoʻnaltirdi.

Donishning siyosiy gʻoyalari ham keyingi davrlarda muhim rol oʻynadi. U davlat tuzilmasini isloh qilish, adolatli boshqaruvni joriy etish, inson huquqlarini hurmat qilish tarafdori edi. Bu qarashlar keyinchalik mustaqillik davrida Oʻzbekiston Respublikasining siyosiy va huquqiy tizimida ham aks etdi. Davlat va jamiyat boshqaruvida shaffoflik, qonun ustuvorligi, adolat va tenglik prinsiplarining shakllanishi Ahmad Donish tomonidan ilgari surilgan tamoyillarning davomidir.

Ahmad Donish qarashlari Sovet davrida ham butunlay rad etilmadi. Garchi diniy-maʼrifiy gʻoyalari baʼzan siyosiy sabablarga koʻra eʼtibordan chetda qolgan boʻlsa-da, uning ilm-fanga, taraqqiyotga, tenglikka oid gʻoyalari Sovet taʼlim tizimi va ijtimoiy hayotida maʼlum darajada oʻz aksini topdi. Ayniqsa, savodxonlikni ommalashtirish, fan va texnikani rivojlantirish borasida Donishning maqsadlariga monand ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida Ahmad Donishning qarashlariga nisbatan eʼtibor yanada ortdi. Uning merosi davlat siyosati darajasida oʻrganila boshlandi. Maktab va oliy taʼlim darsliklariga uning asarlari kiritildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu, avvalo, Ahmad Donishning fikrlari bugungi kun bilan hamohang ekanligini koʻrsatadi. U ilgari surgan demokratiya, inson huquqlari, erkin fikrlash, taʼlimga oid qarashlar mustaqil Oʻzbekiston taraqqiyot yoʻlida muhim oʻrin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donishning ilmiy merosi – bu faqat tarixiy ahamiyatga ega boʻlgan manbalar toʻplami emas, balki kelajak taraqqiyot yoʻlida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan boy gʻoyalar, nazariyalar va amaliy tavsiyalarning manbaidir. Uning fikrlari, qarashlari va asarlari

hozirgi kun uchun ham bebaho ahamiyatga ega bo'lib, har bir davr ziyolilari uchun o'rnak bo'la oladi. Ahmad Donishning qarashlari XIX-XXI asrlar davomida O'zbekistonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatgan. U nafaqat o'z zamonasining fidokor ziyolisi, balki bugungi kun ziyolilarining ham yo'l ko'rsatuvchisidir. Uning merosi doimiy o'rganilishga, chuqur tahlilga va zamonaviylikka mos ravishda tatbiq etishga loyiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Рачабов З. Ш. Маорифпарвар Ахмади Дониш. – Душанбе, 1964. – С. 282.
2. Багоутдинов А. М. Очерки по истории таджикской философии. – Сталинабад, 1961. – С. 282
3. Ahmad Donish. Navodir –ul vaqoe. Fors-tojikdan tarjima qiluvchilar. Alixonto'ra Sog'univ va A.Xamroyev. Toshkent-Istanbul 2021. B-17.
4. Гафуров Б. Г. Толькон. Китоби 2. – Душанбе, 1985. – С. 280
5. Ленин В. И. Пробуждение Азии // Полн. Собр. Соч. Т. 23. – С. 145-146.

REZYUME:

Ushbu maqolada Ahmad Donish ilmiy merosi va falsafiy qarashlarining mustaqillik yillarida tiklanishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, inson falsafasi, jamiyat, taraqqiyot, ilmiy meros, ma'naviyat.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье с научно-теоретической точки зрения освещается восстановление и переосмысление научного наследия и философских взглядов Ахмада Дониша в годы независимости, а также их значение для развития общества.

Ключевые слова: Ахмад Дониш, философия человека, общество, развитие, научное наследие, духовность.

RESUME

This article provides a scientific and theoretical analysis of the revival and reinterpretation of Ahmad Donish's scholarly heritage and philosophical views during the years of independence, as well as their significance for the development of society.

Keywords: Ahmad Donish, philosophy of the human being, society, development, scholarly heritage, spirituality.